

Xalqaro onlayn konferensiya bo'lib o'tdi

2020-yil 18-may kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyat bo'limi, Urganch davlat universiteti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Porto universiteti, Ispaniyaning Barselona universiteti hamkorligida "Xorazm - Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida" mavzusidagi xalqaro onlayn konferensiya o'tkazildi.



Konferensiyani 100 ga yaqin tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, mustaqil izlanuvchilar kuzatib bordilar. Konferensiya so'nggida o`zaro qizg'in savol-javoblar bo`ldi. Konferensiya materiallari to'plam sifatida nashr qilinishi belgilab olindi.